

SAMARQAND PALAEOLIT DAVRIDAN LAVHALAR

SH.A.Tojiyev¹

Samarqand davlat universiteti

KEYWORDS

Samarqand, Omonqo'ton
,Takalisoy, Go'rdora
,Qo'tirbuloq, Zirabuloq,
Paleolit, Bronza.

ABSTRACT

Ushbu maqola Samarqand shahri va uning tumanlarigacha bo'lgan ibtidoiy madaniyat tarixining paleolitdan to bronza davrigacha bo'lgan dinamik rivojlanishi masalalarini o'rganuvchi boy va yangi arxeologik materiallarni yakunlash asosida tuzilgan.

2181-2675/© 2025 in XALQARO TADQIQOT LLC.

DOI: **10.5281/zenodo.15732018**

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Doimiy dala kuzatuv ishlari tufayli Sazag'on va Tepaql qishloqlari atrofidan 30 dan ziyod neolit makonlari topildi. Bu manzara bu atrofda bir necha ona urug'i jamoalar guruhlariga keng ko'lamda yoyilib, tig'is va hamkorlikda yashaganligidan darak beradi.

Sazag'on-II neolit davri makoni ham qiziqarli arxeologik manbalar berdi. Bu yodgorliklar hududiy jihatdan bir-biriga yaqin va dara qayirining bir muncha tekislik uchastkalarida joylashgan. Sazag'on-II jamoalari Sazag'on-I mezolit jamoalarining merosxo'rlari bo'lib chiqdi.

Sazag'on II makonida keng ko'lamda qazishma ishlari bajarilib, qariyb 800 m² maydon ochilib tekshirildi. Makonning ayrim joylari keyingi davrlarda bu erni ekinzorga aylantirilishi munosabati bilan buzilganligi ma'lum bo'ldi (Джуракулов М.Д., Холматов Н.У., 1991)². Qazish ishlari bajarilgan joylarning ayrim qismlarida madaniy qatlam yaxshi saqlangan. Makonning ma'dan tuproq qalinligi 2,8-3 metrdan iborat. Qazishmalar davomida makondan 4 mingdan ko'proq arxeologik ashyolar to'plandi. Bu katta kolleksiya tarkibida turli shakl-shamoyilga ega toshdan va suyakdan yasalgan qurollar, jumladan, qirg'ichlar, qadama toshlar, ishlov berilgan paraqalar, o'q-yoylar, randalar, silliqqlangan boltalar, panalar, sopol idish parchalari, suyak bigizlar, tosh teshgichlar, har xil shakldagi prizmatik o'zaklar taqdim qilingan. Umuman, bu atrofni o'rganish shundan

darak beradiki, Sazag'on tog' darasining qulay ekologik burchaklarida va u bilan bog'liq qayirlar ustida ona urug'i jamoalarining bir necha guruhlari yashaganligidan guvohlik beradi. Shuningdek, ma'dan qatlamlardan topilgan gulxan, o'choq, toshdan qalangan kapa poydevori, hayvonot olami, sopol parchalari, zebi-ziynat ashyolar hamda mikrolit va boshqa ro'zg'or buyumlarining topilishi bundan dalolat beradi.

Sazag'onlik mezo-neolit jamoalari toshni qayta ishlash, silliqlash, to'g'ri prizma shakldagi paraqalarni tosh o'zaklaridan ajratib olish ustalari bo'lishgan. Ammo toshning turli uchirmalari asosida qurollar ko'proq ishlab chiqilgan. Bu manzara sazag'onliklar madaniyatining o'ziga xosligini ko'rsatadi. Makondan topilgan turli shakldagi qirg'ichlar, randalar, teshgich singari qurollar shundan dalolat beradi.

Ayniqsa, qumli toshdan yasalgan va turli hajm va shakldagi yorg'uchoqlar, qadama tosh (o'roq, pichoq) tig'lari singari ro'zg'or buyumlarining ko'plab topilishi bu jamoalarning ziroatchilik, ya'ni oddiy dehqonchilikni kashf qilib, mahsulot ishlab chiqarish iqtisodiga o'tganligidan guvohlik beradi.

Insoniyat tarixida dehqonchilik xo'jaligining kashf qilinishi inqilobiy hodisa bo'lib, bu hodisa sivilizatiyaning ilk ildizlaridan

sanaladi. Bu xo'jalikning tobora rivojlanishi jamoalarning ijtimoiy, maishiy, iqtisodiy hamda madaniy hayotida buyuk rol o'ynagan. Sazag'onlik jamoalar bu davrda ona urug'doshlik tizimi va uning gullagan taraqqiyot bosqichida turar edi. Turli-tuman mehnat qurollarining topilishi bu jamoalarda o'z zamoniga nisbatan mehnat taqsimotining doimiy rivojlanib borishidan dalolat berar edi.

Dastlabki dehqonchilik asosida bo'lsa-da, kishilar endlikda tabiat muravvutiga mutlaqo qaram bo'lmasdan, ozuqa mahsulotlarini o'zlari ham ishlab chiqara boshlaganlar va bu jarayon turmushning yanada rivojlanishiga katta manfaat keltiruvchi muhim omil edi. Shu o'rinda zikr etish joizki, ijtimoiy ishlab chiqarish zaminida kishilarning tabiiy ehtiyojlari o'zgarib boradi, ya'ni faqat insonga xos, moddiy va ma'naviy ehtiyojlar paydo bo'la boshlaydi. Moddiy ishlab chiqarish asosida ma'naviy madaniyat shakllanib boradi va taraqqiy etadi, ijtimoiy ongning turli shakllari vujudga kelib, jamiyat hayotida muhim o'rinlarni egallaydi. Sazag'on mezo-neolit makonlari bergan manbalar ana shunday jarayondan va bu erda taraqqiyot o'z davriga nisbatan doimiy rivojlanishda bo'lganligidan dalolat beradi. Sazag'on makonlaridan topilib o'rganilgan manbalar, ayniqsa, tosh qurollarini ishlab chiqarish bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlari aniqlandi. Mehnat qurollarining ko'p holatlarda tosh uchirmalari asosida yasalganligi, qayroq qurollarning hamon mavjudligi, toshni qayta ishlashda qo'llanilgan texnik-texnologik uslublar, taqdim qilingan tosh o'zaklar, mehnat qurollari, jumladan, qirg'ich, randa, iskana, pichoq, bolta singarilarning yasaliş xususiyatlarining o'ziga xosligi hamda ularning ayrimlarida so'nggi paleolit, xususan, Samarqand paleolit makoni madaniyati an'analari bilan bog'liqligini kuzatish mumkin bo'ldi. Xullas, Sazag'on mezo-neolit yodgorliklar majmuasi o'zining zikr etilgan va boshqa muhim alomatlariga nisbatan «Sazag'on madaniyati» nomi

bilan fanga kirdi (Джуракулов М.Д., Холматов Н.У., 1991)³.

Sazag'on madaniyati majmuasiga kiruvchi makonlardan topilgan, toshdan silliqланib ishlangan turli taqinchoqlar bu jamoalarning san'ati haqida va o'zlariga oro berish an'alarining mavjudligini ko'rsatadi. Shuni aytish lozimki, Sazag'on ona urug'dosh jamoalarining muhim ozuqa manbai nafaqat motiga dehqonchiligi, shuningdek, ovchilik va termachilik ham edi. Bu makonlardan topilgan tog' echkisi, arxar, bo'ri, bug'u, jayron, buqa, to'ng'iz kabi yovvoyi jonivorlarning suyak topilmalari bu haqda guvohlik beradi. Sazag'onliklar xonaki chorvachilik bilan endigina shug'ulana boshlashgan edi. Ularning xonaki hayvonlari echki, qo'y bo'lgan. Qoramol suyaklari makonda faqat ahyon-ahyonda uchraydi.

Sazag'on-II makonining madaniy qatlamining pastki gorizontidan juda ko'p yirik tosh bo'laklari va gulxan (o'choq) qoldig'ining uchratilishiga qaraganda, bu erda yarim erto'la shaklidagi chayla bo'lgan bo'lishi mumkin. Biroq makonning bu joylari avvaldan buzilganligi tufayli chayla qoldig'ini aniqlash mumkin bo'lmadi

Arxeolog N.U.Xolmatov Sazag'on qishlog'iga yaqin tog' darasida joylashgan Tepaqul soyi o'ng qayirida 1999 yildan e'tiboran arxeologik tadqiqotlar olib borib, daraning bir necha joylaridan neolit davri makonlarini topdi va o'rganmoqda. Shulardan biri – Tepaqul-4 nomini olgan. Bu erda neolit davri jamoalarining katta makoni o'rganilmoqda. 1992-1993 yillarda moskvalik arxeolog A.V.Vinogradov ham qazish ishlarida hamkorlik ko'rsatdi. Tepaqul-4 makonining 400 m² maydoni ochilib o'rganildi. Madaniy qatlam bilan bog'liq tuproq qalinligi 1,5-2 metr. Madaniy qatlam makonning eng pastki gorizontida saqlanib qolgan. Makondan qariyb 5 mingdan ziyod arxeologik ashyolar topilgan bo'lib, ular aynan Sazag'on madaniyatini eslatadi (Холматов Н.У., 2003, 61-65)⁴.

Bundan tashqari N.U.Xolmatov ijrochiligida Sazag'on qishlog'i yaqin atrofida joylashgan soylar qayirlarida, shuningdek, Tepaqul, Egriqul, Jangal qishloqlari atrofidan neolit makonlarini qazib o'rganib, serob manbalar to'plashga erishdi. Sazag'on madaniyatiga oid o'sha davrda yashagan jamoalarning izlari Qoratepa tog'ining eng baland joylarida, shuningdek, uning janubiy qiyalarida ham mavjudligi aniqlandi (Холматов Н.У., 2003)⁵. Darhaqiqat, tog'ning bu hududida xalq orasida Amir Temur nomi bilan yuritiladigan g'ordan ilgari mikrolit buyumlari topilgan edi.

SamDU olimlari bilan bir vaqtda O'zFA arxeologiya instituti ilmiy xodimlari T.Grechkina, R.A.Xudoyberdievlar Qoratepa tog'ining shimoli-sharqiy yon bag'irlaridagi tog' daralaridan Ohalik, Zaminchatosh g'olarini tekshirib, Sazag'on mezo-neolit madaniyatiga xos serob manbalar, jumladan, mikrolit qurollar, suyakdan yasalgan juvoldiz, igna va turli teshgich qurollar topilishi bu davrning o'z an'alaridan, ya'ni jamoalarda kiyim-kechak bichish, ro'zg'or buyumlarini tikish singari faoliyatlaridan guvohlik beradi.

paleolit madaniyatining merosxo'rlari ekanligi haqida shubha yo'q, endilikda. Bu xulosa boy arxeologik manbalarni ilmiy analitik tekshiruvlar asosida vujudga keldi. Samarqand

² Джуракулов М.Д., Холматов Н.У., 1991

³ Холматов Н.У., 2003, 61-65

⁴ Холматов Н.У., 2003

so'nggi paleolit madaniyati shu muzofotdagi Omonqo'ton, Zirabuloq, Qo'tirbuloq singari o'rta paleolit davri yodgorliklari negizida shakllangan. Samarqand paleolit jamoalarining mehnat qurollarini yaratishdagi texnik-texnologik an'analarning ko'pgina xususiyatlari Sazag'on jamoalari madaniyatida mavjudligi, ular Samarqand so'nggi paleoliti jamoalarining merosxo'rlari deb aytishga ilmiy asos bo'la oladi. Demak, Sazag'on madaniyati avtohton, ya'ni tub madaniy merosdan kelib chiqqan bo'lib, uning avvalgi avlodlari esa Samarqand so'nggi paleolit jamoalari edi (Джуракулов М.Д., Холматов Н.У., 1991)⁶.

Yuqorida keltirilgan arxeologik dalillar bu o'lkada sodir bo'lgan madaniyat o'rta paleolit davridan boshlab uzluksiz rivojlanishda bo'lib, ajdodlarimiz esa o'z davriga nisbatan yuksak madaniyat ijodkorlari bo'lganligi hamda ularning qo'shni tutash o'lkalarda yashagan jamoalar turmush tarziga ham ijobiy ta'sir ko'rsatganligidan guvohlik beradi. Metallning kashf qilinishi, undan ishlab chiqarish xo'jalik qurollari yasash ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotning yanada jadallashuviga olib keldi. Samarqand hududi va uning atrof tumanlarida metall, ya'ni bronza davriga doir qator yodgorliklar topilib o'rganilgan bo'lib, bu atrofda shu davrda yashagan jamoalar Sazag'on madaniyatli qabilalarning merosxo'rlari edi. Bevosita Samarqand vohasida bronza davri yodgorliklari SamDU olimlari tomonidan o'rganilgan. Xususan, 1960-1998 yillarda olib borilgan tadqiqot ishlari tufayli Mo'minobod, Chakka, Soyg'us, Jom, Siob, To'qayli singari qabr va qishloqlar topilib o'rganildi va bu jamoalarning madaniyati haqida guvohlik beruvchi qiziqarli manbalar qo'lga kiritildi.

Bu yodgorliklar orasida Mo'minobod qabristoni qiziqarli manbalar berdi. Bu yodgorlik Samarqand shahridan 64 km sharqroqda, Urgut tog'i daralaridan birida joylashgan Mo'minobod qishlog'i atrofida topilgan bo'lib, uni dastlab D.N.Lev (Лев Д.Н., 1966)⁷, keyinchalik esa A.A.Asqarov va N.A.Avanesovalar qazib o'rgandi (Асқаров А.А., 1970)⁸. Bu erdan marhumlar yakka tarzda dafn qilingan qabrlar ochib o'rganildi. Qabrlardan boshi g'arb tomonga qaratib o'ng yonboshga yotqizib bukchaytirib ko'milgan ayollarning jasadlari va ular bilan birga zeb-ziynat buyumlari topildi. Marhumlar bilan birga sopol idishlar, ayniqsa, ko'plab zeb-ziynat buyumlari qo'yilganligi ma'lum bo'ldi. Xususan, jezdan (bronzadan) yasalgan oyna, son-sanoqsiz munchoqlar, isirg'alar, bilaguzuklar topildi. Qabrlardan birida suyakdan yasalgan sibizg'a (nay) topilgan bo'lib, bu hodisa hududimizda musiqa san'ati tarixining naqadar qadimgi davrlarga borib taqalishidan dalolat beradi. Topilmalar orasida oltindan sir berilgan isirg'alar, kumushdan sir berilgan shoda-shoda munchoqlarning nihoyatda ustalik bilan yasalganligi bronza davri zargar ajdodlarimizning yukak texnik-texnologiya san'atiga ega madaniyatidan guvohlik beradi (Асқаров А.А., Лев Д.Н., 1971, 21-29)⁹. Xullas, bu manbalarning o'rganilishi tufayli Samarqand atrofida yashagan qadimgi

⁵ Джуракулов М.Д., Холматов Н.У., 1991

⁶ Лев Д.Н., 1966

⁷ Асқаров А.А., 1970

⁸ Асқаров А.А., Лев Д.Н., 1971, 21-29

chorvador va dehqon qabilalarining turmush tarzi, kiyimlari, san'at, ma'naviy dunyosi haqida qiziqarli ilmiy tasavvurlarga ega bo'lindi. Yodgorlik mil. avv. 14-13 asrlarga oidligi aniqlandi. Bu erdagi qabrlarda topilgan sopol idishlarining yasash shakl-shamoyillari markaziy Qozog'iston mintaqalarida bronza davrida yashagan Andronov qabilalarining buyumlariga o'xshashligiga qaraganda, mil. avv. II minginchi yillikning oxirlarida bu mintaqalarga andronovalik jamoalardan bir qismi xo'jalik yuritish maqsadida bu tomonlarga ma'qul ekologik burchaklar izlab kirib kelganligidan guvohlik beradi. Urgut tumanidagi Sayg'us qishlog'i yaqinida joylashgan bronza davri qabri N.A.Avanesova tomonidan ochib o'rganildi. Qabrdan o'ng biqiniga yotqizib ko'milgan ayol qoldig'i bilan birga sopol idish, turli-tuman zebi-ziynat buyumlari – munchoqlar, bilaguzuklar, qachov singari buyumlar topildi (Жўрақулов М.Ж., 2000, 39)¹⁰. Soyg'us qabri ham mil. avv. 2 ming yillikka oid jamoalar tarixiga mansubdir. Umuman, yuqorida so'z borgan qabrlardan topilgan sopol buyumlar, jezdan yuksak did bilan ishlab chiqilgan bilaguzuklar, munchoq – marjonlar, juvoldiz va boshqa buyumlar bu muzofotda yashagan chorvador – dehqon jamoalar turmush tarzi va madaniyatini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Mo'minobod va boshqa shu singari yodgorliklardan topilgan ashyolar SamDU arxeologiya muzeyi ko'rgazmalarini bezab turibdi (Жўрақулов М.Ж., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А., 1994, 110-112)¹¹.

1986 yili SamDU arxeologiya guruhi rahbari N.A.Avanesova Samarqand davlat xo'jaligi hududida joylashgan To'qayli qishlog'i atrofidagi bronza davriga mansub makon qoldig'ini o'rgandi. Makon daryo qirg'og'ida joylashganligi tufayli uning bir qismi jarlikka nuragan. Saqlangan madaniy qatlamning qalinligi 04, 07 m. Yodgorlikning 216 m² maydoni qazib tekshirildi. Natijada bu erdan to'rtburchak shaklidagi yarim erto'la uy qoldig'i topildi. Uning poli va devori loy bilan suvalgan. Bundan tashqari madaniy qatlamdan toshdan yasalgan o'q-yoy uchlari, tosh bolta siniqlari, qadimgi hayvon suyaklari, gurzilarning sop uchlari, bronzadan ishlangan ba'zi bezaklar, chig'anoqlar, hayvon tishlari, lojuvard va gipsdan yasalgan munchoqlar, sopol idishlarni silliqlab, sayqal beradigan asboblari topildi. Eng muhimi, makon – qishloqning bir chekkasida metall – rudani eritadigan, diametri 40 sm, chuqurligi 60 sm doira shaklidagi qo'ra qoldig'i topildi. Bu pechning tagida saqlangan ko'mir kul qoldig'ining qalinligi 30 sm gacha boradi. Qura atrofida qariyb 32 m² maydonda ko'plab mis toshqoli (shlak), oksidlangan ruda qoldiqlari, ko'mirga aylangan yog'och bo'laklari, sopol parchalari, eritib tozalangan metallni quyish terrakota qoliplari, bolg'acha, o'g'ir dastasi, rudani maydalash uchun foydalaniladigan granit tosh sandonlar, rudani ezadigan qurollar topilindi. Topilgan buyumlar va boshqa ashyolar bu yodgorlik mil. avv. II minginchi yillarga doir metallurglarga mansub qishloq ekanligi ma'lum bo'ldi (Аванесова Н.А., 1996, 117-131)¹². Nurobod tumaniga qarashli Jom qishlog'i atrofida bronza davriga doir yana bir yodgorlik topib o'rganildi. Bu erda qadimgi qabriston mavjud bo'lib, u turli davrlarda erdan xo'jalik

⁹ Жўрақулов М.Ж., 2000, 39

¹⁰ Жўрақулов М.Ж., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А., 1994, 110-112

¹¹ Аванесова Н.А., 1996, 117-131

maqsadida foydalanish tufayli buzilib ketgan. Faqat saqlangan 4 ta qabr ochilib o'rganildi. Ularning uchtasi mil. avv. XVI asrlarga, ya'ni Sopolli madaniyatiga, bittasi esa bronza davrining andronova madaniyatiga mansubligi aniqlandi. Qabrlarda dafn bilan bog'liq sopol idishlar, jezdan yasalgan to'g'nog'ich, dastali dumaloq shakldagi oyna, dastasiz oyna hamda munchoq taqinchoqlar topildi. Xullas, bu yodgorlik materiallari ham chorvador – dehqon ajdodlarimizning madaniyat tarixini o'rganishda muhim manba hisolanadi (Жўракулов М.Ж., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А., 1995, 101-105).

Qiziqarli yodgorliklardan biri Chakka qabristoni hisoblanadi. U 1975 yili Samarqand shahridan 9 km g'arbda Zarafshon daryosining so'l qirg'og'idagi Chakka qishlog'i atrofida topilgan bo'lib, uni o'rganishni 1975 va 1977 yillarda Ya.K.Krikis boshlab bergan edi. Bu erdan 4 ta yakka holatda dafn qilingan ayollar qabri qazib o'rganildi. Jasadlarning yuz tomoni janubga, boshi shimoli-sharqqa qaratilini, chap biqiniga yotqizib, oyoq qo'llari bukilgan, g'ujanak holatda dafn qilingan. Qabrlarda sopol idishlar uchratilgan va ular ancha dag'al yasalgan bo'lsa-da naqshlangan edi. Sopol idishlarning aksariyati tuxumsimon shaklda bo'lib, ular sirtiga qiya, aylana chiziqlar tufayli naqshlar berilgan. Umuman, idishlar mil. avv. II ming yillikda yashagan andronova chorvador qabilalariga xos. Qabrlarning ayrimlaridan (№2) bronzadan yasalgan bilaguzuklar, oltin suvi berilgan spiralsimon jevaklar, 40 tagacha bronzadan yasalgan mayda munchoqlar topilgan bo'lib, bu buyumlar yuksak zargarlik san'ati asosida ishlangan. Uchinchi qabrdan naqshlangan sopol idishlar bilan bir qatorda taqinchoq – munchoqlardan tashqari oltin qalami bilan bir yarim marta o'ralgan 6 dona spiralsimon shokila topilgan. Munchoqlarning ayrimlari nafaqat bronzadan, shuningdek, xolsedon, lojuvard toshlardan ham yasalgan. Umuman, Chakka qabrlaridan topilgan ashyolar mil. avv. XIV-XIII asrlarga taalluqli bo'lib, bu manbalar ajdodlarimizning yuksak zargarlik san'atidan dalolat beradi. Bu topilmalar Samarqand atrofida yashagan qadimgi ajdodlarimizning urf-odatlarini, diniy qarashlari ularning o'ziga xos rivojlanish jarayoni haqida ma'lumotlar beradi. Xullas, ma'naviy va xo'jalik turmushini o'rganishda qiziqarli manba hisoblanadi (Аванесова Н.А., 1991, 70-74)¹³.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аванесова Н.А., 1996
2. Асқаров А.А., Лев Д.Н., 1971,
3. Джуракулов М.Д., Холматов Н.У., 1991
4. Холматов Н.У., 2003
5. Веселовский М.В., 1942, №2; Джуракулов М.Д., 2000, 10
6. Воеводский М.В., 1942, №2; Шишкин В.А., 1969, 112-113
7. Жўракулов М., 2000, 11
8. Жўракулов М.Ж., Аванесова Н.А., Амиркулов Б.А., 1994

¹² Аванесова Н.А., 1991, 70-74